

**PIYOZBOSHLI O'SIMLIKLARNI O'RGANISH****G'afforova Xonzodabegim Akbaraliyevna***Abu Ali ibn Sino nomidagi ixtisoslashtirilgan maktab 7-“B” sinf o'quvchisi***Ilmiy rahbar: Saidxonova Shahnoza**

**Annotatsiya:** Ushbu taqdimot orqali siz piyozboshli o'simliklar haqidagi umumiy ma'lumot, ularning dorivor xususiyatlarini bilib olasiz. Shu bilan birga ushbu oilaga kiruvchi o'simliklar haqidagi qiziqarli ma'lumotlar, ularning tuzilishi, ko'payishi va ular haqidagi boshlang'ich ma'lumotlar bilan tanishib chiqasiz.

**Kalit so'zlar:** Evropa, Gollandiya, fitonsid, popuk ildiz, parallel tomirlanish, greg lolasi, toj burglar, bir urug' pallalilar, piyozcha, xolesterol.

Piyozdoshlar eng ko'p vakillarga ega bo'lib, 8 turkum va 500 turdan iborat. Shundan piyoz (*Allium*) turkumi 500 dan ortiq bo'lib, dunyoning ko'pchilik qismida tarqalgan. Bu turkum 6 ta kenja tur, 30 seksiyadan iborat. Ko'pchilik yovvoyi holdagilari mahalliy aholi tomonidan ozuqa sifatida ishlatiladi. Bular g'ilay piyoz (*A.obliquum*), oltoy (*A.altaicum*), piskom (*A.pskemense*), sutlama piyoz (*A.galanthum*) bular oziq-ovqat sanoatida ishlatilsa, mo'g'ul piyozi, 2 tishli piyoz, xushbo'y piyoz yaylov o'simliklaridir. Ulardan chorvadorlar tuzlangan briketlar tayyorlashadi. Piyozlar juda qadimdan ekinga kiritilgan. Dastlabki paydo bo'lgan insonlar uning achchiq ta'mi tufayli oziqda ishlatib keyin ko'paytirishgan. Masalan, piyozning rasmi eramizdan 3200-2700 yillar ilgari chizilgan, eramizdan 4000 yil oldin ekila boshlagan. Ular qadimgi Misr, Gretsiya, Rim imperiyasi va Yaqin Sharq davlatlarida dorivor va ozuqa sifatida ishlatilgan. Diniy marosimlarda, mumifikatsiyalashda ishlatishgan. Qadimgi Misrliklar piyoz va sarimsoqni ilohiy o'simliklar hisoblagan. Qadimgi greklarda ham piyoz va sarimsoq turli diniy marosimlarda foydalanilgan. Masalan, yangi oila quruvchilarni piyoz bilan tabriklab, piyoz sog'liq garovi ekanligi e'tiborga olingan. Afina sarkardasi Efikrad uylanishiga bir bochka piyoz sovg'a qilishgan. O'sha paytlarda askarlarning ovqatlariga piyoz qo'shib berish rasm-rusm hisoblangan.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA NATIJALAR****Lola qanday tuzilgan va qayerda birinchi bo'lib paydo bo'lgan...**

**Lola** (Tulipa) — loladoshlar oilasiga mansub ko'p yillik o'simliklar turkumi, manzarali ekma gul. Yer yuzida uning 1400 ga yaqin, jumladan, Yevrosiyoda 100 dan ortiq, O'rta Osiyoda 64 turi tarqalgan. Lolalar piyozli bahori o'simlik hisoblanadi, gulchilikda muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'pgina mamlakatlar qatorida Niderlandiyada va O'rta Osiyoda lola ko'proq yetishtiriladi. O'zbekistonning adir va tog'larida lolaning yovvoyi 25 turi usadi. Lolaning qizil L (T.

greigii) va targil lola (T. fosteriana) xili gullarining yirik va nafisligi bilan boshqa lolalardan farq qiladi. Seleksionerlar yaratgan navlar soni hozirgi vaqtda bir necha mingdan ortiq. O'zbekiston FA Botanika bog'ida 60 ga yaqin xili o'stiriladi. Qizil rang lolaning turli tuslilari: och qizildan, qora qizilgacha, shuningdek, sariq, targ'il, gunafsha va boshqa xillari uchraydi. Piyozni tuxumsimon, rombsimon, sharsimon, diametri 2,5—4 sm, Poyasi 20—30, ba'zan 50 sm gacha. Barglari 2—3 ta, cho'ziq. Toj barglarining uz. 8 sm. Mevasi ko'sakcha, eni 1,5—2 sm, uzunligi. 3—6 sm. Lola, asosan, adirlar, toshli va chag'ir toshli qiyaliklarda yaxshi o'sadi. Urug'i hamda piyozidan ko'paytiriladi (piyozidan ko'paytirilganda erta gul beradi). May — iyunda gullaydi. Iyun — iyul oyining oxirlarida piyozni qazib olinib, 22—25° haroratda quritib saqlanadi, so'ngra harorat 12—13° ga pasaytiriladi. Sentabr-oktabr oylarida piyozni 8—15 sm chuqurlik qazilib ekiladi.

Lola gullari Evropada paydo bo'lganidan keyin birinchi marta oltinga teng edi. Hozir Gollandiya o'zining lolalari bilan mashhur, ammo bu gullarni Gollandiyaliklar o'z mamlakatlariga faqat 16-asrda Turkiyadan olib kelganini kam odam biladi.

1600-yillarda Gollandiyada lola hatto oltindan qimmatroq sotilgan. 1630-yillarda G'arbiy Yevropada lolalar shunchalik qimmatga tushdiki, hatto ular pul birligi sifatida qabul qilindi.

### **Piyozning dorivorligi**

Piyozning bakteriyaga hamda infeksiyalarga qarshi xususiyatlari o'ta yuqoridir. Piyoz suvi tarkibida fitontsid—tabiiy bakteriyaga qarshi moddalar bor. Shuni takidlash joizki Xolesterol miqdorini kamaytiradi, yurakni mustahkamlaydi va saraton xastaligini oldini oladi. Piyoz xolesterolga qarshi kurashda yordam beradi chunki uni miqdorini sezilarli darajada tushuradi. Unda yana qonning mayinlashiga ta'siri mavjud, shu orqali u qon bosimini tushuradi, qonni qo'yiqlashini oldini olib yurakni himoyalaydi.

### **Greyg lolasi**

Bir urug'pallalilar sinfi, loladoshlar oilasi, lola turkumiga mansub gulli o'simlik turi. O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kamyob, endemik tur sifatida kiritilgan. Toshkent viloyati hududidagi tog' tizmalarida tarqalgan. Bo'yi 10-45 sm gacha yetadigan ko'p yillik piyozchali o't o'simlik. Popuk ildiz tizimiga ega. Piyozni tuxumsimon yoki yumaloq, tashqi qobig'i qalin charmsimon. Barglari 3-4 dona, bandsiz, egri-bugri, yuqori qismida siyohrang dog'lari bor, pastki tomoni bilan poyani o'rab oladi, ketma ket joylashgan. Gullari yakka, ikki jinsli. Gulqo'rg'oni oddiy, o'zaro qo'shilmagan, erkin. Gultojibarglari to'q qizil, to'q sariq dog'lari bor. Gulning tubida tuxumsimon qora dog'lar ko'zga tashlanadi. Changchi iplari qora, changdonlari sariq. Hasharotlar yordamida changlanadi. Aprel may oylarida gullab mevasi iyulda pishib yetiladi. Mevasi quruq ko'sak meva. Urug'I va piyozchalari orqali ko'payadi.

## XULOSA

Ushbu taqdimot orqali shunday xulosaga kelish mumkinki piyozboshli o'simliklar juda ham xilma-xil bo'lib ko'p turlarni o'zichiga oladi. Hattoki ko'plab turlaridan tabobatda ham kasalliklarni davolash mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://uz.telegram-store.com>
2. <https://100-facts.com>
3. <https://zenodo>.
4. <https://uz.wikipedia>.